

YOSHLAR



AKADEMIYASI

2023

YOSHLAR
AKADEMIYASI

FAOLIYATI NATIJALARI



Yoshlar akademiyasi

Ilm-fan sohasiga o'z hissangni qo'sh!



“

Yoshlar akademiyasi yurtimizda ilm-fan va innovatsiyalar bilan shug'ullanuvchi yoshlarni yagona tizimga birlashtirgan holda ularni har sohada qo'llab-quvvatlash vazifasini bajarishi lozim.

Maqsadimiz — yurtimizdagi ilmiy darajali kadrlarning o'rtacha yoshini yoshartirishdir.

”

I.Y.ABDURAXMONOV

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, Akademik.

Ilmiy innovatsion sohada faoliyat yuritayotgan iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, mamlakat ilm-fanining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta'minlash, mavjud ilmiy maktablar salohiyatini yanada mustahkamlash hamda ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish maqsadida yuridik shaxs maqomisiz tashkil etilgan platforma hisoblanadi



Yoshlar akademiyasiga a'zolik

Yoshlar akademiyasiga o'zlarining innovatsion loyihalari va g'oyalarga ega iqtidorli yoshlar va talabalar, 40 yoshgacha bo'lgan olimlar va tadbirkorlar yakka tartibda yoki jamoa shaklida tanlov asosida qabul qilinadi.

Yoshlar akademiyasi platformalari



“G'oyalar generatorlari” — Yoshlar akademiyasining asosiy yo'nalishlariga tegishli bo'lgan ma'lum bir muammoning yechimiga qaratilgan innovatsion g'oyaga ega jamoalar platformasi;



“Startaplar” — o'z g'oyasi va ushbu g'oyani amalga oshirishga qaratilgan startap loyihalari va ularni amalga oshirish bo'yicha aniq rejaga ega jamoalar platformasi;



“Biznes vakillari” — faoliyatida ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini qo'llagan va tegishli sohada kamida 1 yillik tajribaga ega bo'lgan jamoalar platformasi;



“Bo'lajak akademiklar” — yuqoridagi platformalarda faol ishtirok etgan, mamlakatning ilm-fan rivojlanishiga katta hissa qo'shayotgan yuqori ilmiy salohiyatga ega olimlar platformasi.

- ▶ davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda yoshlarni ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini oshirish;
- ▶ iqtidorli va tashabbuskor yoshlar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish hamda ularni mamlakatning yetakchi olimlari va ishbilarmonlari bilan hamkorligini ta'minlash;
- ▶ ilmiy-innovatsion akselerator va biznes-inkubatorlarni tashkil etish asosida tashabbuskor yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish;
- ▶ iqtidorli yoshlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari, universitetlari, texnoparklari va ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishlariga ko'maklashish;
- ▶ xalqaro tashkilotlar, universitetlar, ilmiy markazlar bilan yaqindan aloqalar o'rnatish, ularning olimlari va mutaxassislari ishtirokida mahorat darslari, treninglar, shuningdek, dolzarb ilmiy-innovatsion yo'nalishlar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va tanlovlar o'tkazish.



Yoshlar akademiyasi tomonidan **2019-2023-yillarda 145 dan ortiq** tadbirlar va tanlovlar tashkil etilgan bo'lib, ularning doirasida **100 000 ga** yaqin yoshlar qamrab olindi hamda **1 000 dan** ortiq yoshlar jami qiymati **35 mlrd so'mdan ortiq** miqdorida pul mablag'lari bilan moliyalashtirilgan.

“Technoways” - texnologik rivojlanish marafonlari



Yoshlar soni: **5 200 nafar**

Loyihalar soni: **1 050 ta**

G'oliblar soni: **110 ta**

Mukofot qiymati: **1 500 mln so'm**



2020-yilda: **3 ta mavsum**

2021-yilda: **5 ta hudud, Respublika bosqichi**

2022-yilda: **14 ta hudud, Respublika bosqichi**

2023-yilda: **115 ta OTMLlarda**

“MIRZO ULUG‘BEK VORISLARI” RESPUBLIKA TANLOVI



Ishtirokchilar soni: **43 200 nafar**

G‘oliblar soni: **100 ta**


Mukofot qiymati: **600 mln so‘m**

O‘tkazilgan bosqichlar:

Tuman - **206 ta**

Hudud - **14 ta**

Respublika - **280 nafar ishtirokchi**



“Bo‘lajak olim” tanlovi

“Bo‘lajak olim” tanlovi doirasida **594 ta** ilmiy g‘oyalar, ilmiy va startap loyihalar ko‘rib chiqilib, **137 ta** loyiha **37,1 mlrd** so‘m miqdorida moliyalashtirilgan.



“Akademik harakatchanlik” dasturi

“Akademik harakatchanlik” dasturi doirasida yosh olimlarning **23 ta** ilmiy tadqiqot loyihalari **824 mln** so‘m miqdorida moliyalashtirildi.



“Teknofest” festivali

Aviatsiya va kosmonavtika sohasida yirik festivalda Yoshlar akademiyasi a’zolari ishtirok etishdi.

O’tkazilgan sana: **27-30.04.2023-yil**

O’tkazilgan joy: **Istanbul shahri**

Ishtirokchilar: **Yoshlar akademiyasining 15 nafar a’zolari**



“Start4region” tanlovi

Qoraqalpog‘istonlik yoshlarning eng yaxshi ilmiy g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tanlov

Ishtirokchilar soni: **83 nafar**

G‘oliblar soni: **10 ta**

Mukofot qiymati: **500 mln so‘m**



“Technoways” – harbiy ilmiy innovatsion marafoni



Mudofaa vazirligi
tizimidagi iqtidorli
yoshlarning ilmiy
g'oyalarini va
ishlanmalarini tanlovi.

Loyihalar soni: **81 ta**
G'oliblar soni: **13 ta**
Mukofot qiymati: **1.1 mlrd**
so'm




Yoshlar akademiyasi a'zoliqi uchun ro'yxatdan o'tgan iqtidorli yoshlar saralash asosida a'zolikka qabul qilinadi.

2023-yil 20-iyulga qadar Yoshlar akademiyasining "G'oyalar generatori", "Startaplar", "Biznes vakillar" hamda "Bo'lajak akademiklar" platformalari bo'yicha 40 yoshgacha bo'lgan jami 4121 nafar iqtidorli yoshlar va yosh olimlar Yoshlar akademiyasi a'zoligiga qabul qilingan.

Hozirda Yoshlar akademiyasi 456 nafar faol a'zolari Yoshlar akademiyasi faoliyati ishtirok etib kelmoqda.

Yoshlar akademiyasiga a'zo bo'lish tartibi



* Yoshlar akademiyasi a'zoliqi uchun ro'yxatdan o'tgan iqtidorli yoshlar tanlov asosida a'zolikka qabul qilinadi.



* Yoshlar akademiyasi Assambleyasining har haftadagi yig'ilishida yangi a'zolar tasdiqlanadi.

ZIYODULLA BO'TAXONOV

Tug'ilgan sanasi:
29.08.1998 yil


Tug'ilgan joyi:
Farg'ona viloyati

O'qish joyi:
Toshkent shahridagi Turin
Politexnika Universiteti

Loyihasi nomi:
"Dreamsat", "Nazzar X"



**KOSMOSNI
ZABT ETISH
VAQTI
KELDI!**



2021-yilning 13-yanvar kuni O'zbekistonda tarixiy voqea yuz berdi. O'sha kuni 23 yoshli Ziyodulla Butaxonov bir yillik ilmiy izlanishlar, mashaqqatli urinishlar bilan, nihoyat, Farg'ona vodiysida kosmosga aerostat uchirdi va uni muvaffaqiyatli ravishda yerga qo'ndirdi.

Aerostat orqali yurtimiz bayrog'i kosmosga ham ko'tarildi. Buni oddiy tilda O'zbekiston birinchi marta yaqin kosmosni, ya'ni stratosferani zabt etdi, desak ham bo'ladi.

Bugungi qahramonimiz ko'plab tanlovlar g'olibi. Shu jumladan, "Technoways" marafonining ham. Shuningdek, Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Innovatsiyalar Milliy ofisiga qarashli "Aerokosmik laboratoriya" rahbari hamda "NazarX" loyihasi muallifidir.

Bugungi kunda u Toshkent shahri Olmazor tumani hokimligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "Dreamsat" loyihasi ustida ish olib bormoqda. Ushbu loyiha asosida yoshlarimiz kosmosni zabt etishni boshlaydi.





**DILMUROD
RUSTAMOV:**

**“QUROLLI KUCHLARIMIZ
SANOATINI INNOVATSIYALARIM
BILAN BOYITMOQCHIMAN!”**

Har qanday davlatning rivoji uning bilimlil, zukko, iqtidorli yoshlar jamiyati bilan ham chambarchas bog'liq. Biz ana shunday iste'dod egalaridan biri bilan suhbatlashish baxtiga muyassar bo'ldik. Dilmurod Rustamov endigina 19 yoshni qarshilayotgan bo'lishiga qaramasdan, harbiy muhandislik sohasidagi innovatsion loyihalari bilan ko'pchilikning e'tiboriga tushib ulgurdi.

YOSHLIKDAGI SHO'XLIKLARIM MENI BU SOHAGA YO'NALTIRDI


Harbiy muhandislik sohasiga qiziqishimning ilk sabablaridan biri – harbiy xizmatchilar oilasidan tug'ilganligim. Tabiiyki, yoshligimdan yurt tinchligi, xalq farovonligi har bir o'zbek o'g'loni uchun muqaddas burch ekanini his qilib voyaga yetdim.

Aynan muhandislik sohasiga kirib kelishimga esa tog'am sababchilar. Ular menga deyarli har oyda yangi mashina va pistolet o'yinchoqlar sovg'a qilardi. O'yinchoqlarim ko'p bo'lardi, lekin ular orasida birorta "sog'i" bo'lmasdi. Qo'limga tushgan kunyoq, ularni qismlarga ajratib, qayta yig'ardim. Yig'ish jarayonida qaysidir qismlari ortiqcha bo'lib qolardi, vaholanki, keyin ishlamasdi. Har bir o'yinchog'im texnik ko'rigimdan o'tgan, desam adashmagan bo'laman. Hozirgacha ham bu odatim meni tark etmadi. Vaqt o'tib, o'yinchoqlar o'rnini elektrotexnika vositalari egalladi.

HAR SOHADA USTOZ ZARUR

Ota-onam menga nisbatan juda talabchan. Maktab davridanoq aniq fanlarni yaxshi o'zlashtirishim uchun menga doim ko'mak berishgan. Qolaversa, ustozlarimning o'ziga xos o'quv metodikasi tufayli matematika hamda fizika, keyinchalik esa kompyuter va dasturlashga oid bilimlarimni mukammal o'zlashtirishga erishdim. Shu tariqa kichik-kichik mexanizmlar hamda sxemalarni yig'a boshladim.

15-16 yoshlarimda robototexnika to'garaklariga a'zo bo'lishni istadim. Biroq bu soha yurtimizda endi rivojlanayotgani sababli juda katta mablag' talab etardi. Shu-ning uchun robotlar yasash bilan mustaqil shug'ullanishga qaror qildim. Qiziqishim yuqo-



riligini ko'rib, dadam meni iqtidorli va robototexnika bo'yicha katta tajribaga ega shogirdlaridan biri – Javohir Toshpo'latov bilan tanishtirib qo'ydi. Aynan shu inson birinchi marotaba qo'limga Arduino, meta controller ushlatib, 3D modellashtirishni o'rgatganlar.

Ulardan olgan bilimlarim asosida mini-raketalar hamda dronlar yasashga muvaffaq bo'ldim. Ishlanmalarimni muntazam ravishda rivojlantirib borish orqali ko'pchilik e'tiboriga tushdim va shu tariqa Innovatsion rivojlanish vazirligida yanada ko'proq tajriba o'ttirish imkoniyatini qo'lga kiritdim.

ISHLANMALARIM JORIY ETILMOQDA

Shu yildan e'tiboran Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsiyalar Milliy ofisiga qarashli

Iroda Shermatova

Biror sohada yuqori martalar sari odinlayotganingizda, birdan mutlaqqa boshqa sohaga o'tib, tub burilish qilgan bo'larmidingiz? Bu savol sizni qajlantirgan bo'lishi tabiiy. Negaki tanilgan sohangizda muvaffaqiyatga erishish uchun juda ko'p kuch, mehnat va vaqt sarflaysiz. Biroq bugungi qahramonimiz ana shunday murakkab qaror qabul qilishiga to'g'ri kelgan.

Iroda Shermatova sportning taekwondo yo'nalishi bo'g'icha qora belbog' 2-DAN sohibi, murabbiy hamda xalqaro hakam darajasini olgan, 5 karr O'zbekiston va 17 dan ortiq chempionatlar g'olibasi. Biroq sport olamida katta yutuqlarga erishgan bo'lishiga qaramasdan, o'z faoliyatini ilmtan sohasida davom ettirishga qaror qildi.

Tanilgan sohasini o'zgaritgan bo'lsa-da, qahramonimiz bu sohada ham ko'plab yutuqlarga erishib ulgurdi. Shu kunga qadar u kumush nanazaraacha saqlovchi "SNP" bolalar upasi, stomatitni davolovchi "ORAL PLAST" doriyor piastinkalari, kumush nanazaraacha saqlovchi "S-Silver" gel dori vositasi olish texnologiyalarini ishlab chiqdi. Uning ushbu ixtihalari STARTUP loyiha qitafida baholandi va amaligatga tatbiq etish uchun 461 000 000 so'm moliyalashtirildi.

**STOMATITNI DAVOLOVCHI
"ORAL PIAST"
YOXUD BIR IXTIRO
IZIDAN**

YAQINLARIMNING SOG'LIQ'I HAMMA NARSADAN USTUNI

Bilasiz, qiz bolalar qo'g'irchoq, o'g'il bolalar esa o'yinchoq mashinalarga ishqiboz bo'ladi. Biroq menda aksi bo'lgan. Oilada uch qiz bo'lsak-da, ko'proq o'g'il bolalar o'ynaydigan o'yinchoqlar e'tiborimni tortardi.



Balki ota-onamga o'g'ilning o'rnini to'ldirish uchun intilish bo'lgandir. Vaqt o'tgan sari o'g'il bolalarday o'zimni himoya qilish va kuchli bo'lishni istardim. Tabiatan ko'rinishim qizlarga xos – nozik. Bu esa yon-atrofdagilarimda "o'g'il bolaga o'xshashga harakat qilsa ham, o'zini himoya qilolmaydi", degan fikr uyg'otganday tuyulgan. Natijada ota-onamdan meni aynan o'g'il bolalar shug'ullanadigan sport turiga berishlarini iltimos qilganman. Shu tariqa 8 yoshimda sportning taekvando turi bilan shug'ullanishni boshladim. Sport klubiga kelganimda, 70 ta bolaning ichida bitta o'zim edim. Lekin bolalarning menga singilday mehribon bo'lishi va har ishda ko'maklashishi jamoaga tezda moslashib ketishimga yordam bergan.

Dastlab sportning qiyin turini tanlaganimga pushaymon ham bo'lganman. Lekin murabbiyning bizlarga bergan motivatsion saboqlari qaddimni rostlab, mashqlarni davom ettirishga undadi. Mashg'ulotlar davomida mashqlarni

yaxshi bajarganim uchun murabbiyimiz menga musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishimni aytdi. Bundan juda xursand bo'lganman.

O'zimni bo'ynimda bir talay medallar bilan tasavvur qildim-da, musobaqalarga bor kuch va mahoratimni ishga solib, tayyorgarliklarni boshlab yubordim. To'g'ri, janglarda mag'lubiyatlarga ham uchradim. Lekin g'olib bo'lishga kuchli intilishim sabab 5 karra O'zbekiston, 17 dan ortiq chempionatlar g'olibasi bo'ldim.

Biroq g'oliblik nashidasini surib yurgan davrimdabuvijonim va xolajonimning dardi bedavo kasallikka chalinganlarini bilib qoldik. Kasallikning kuchli og'rig'idan azoblanganlarini ko'rib, ularning dardiga oz bo'lsa-da, malham bo'ladigan dorilar izlab topish haqida o'yladim. Yurak tubidagi kuchli maqsad va xohish meni farmatsevtika oliygohi tomon yetakladi va taekvando bilan shug'ullanishni to'xtatdim.

KUCHLI ISTAK SARI YUKSAK KELAJAK

Biror narsani chin dildan xohlasangiz, butun ruhiyatingiz sizni o'sha tomon boshqarar ekan.



TIBBIYOTNI O'Z INNOVATSIYALARIM BILAN BOYITMOQCHIMAN

Har bir inson xato qilishi mumkin. Lekin shifokor emas. U inson hayotiga javobgar shaxs. Shu sababli bo'lg'usi shifokorlar tibbiyot tilini mukammal o'zlashtirishlari zarurligi bot-bot gapiriladi. Tibbiyot tili – murakkab. Ammo uni yaxshi o'zlashtirish uchun nazariy va amaliy bilimlar doimo birga olib borilishi lozim. Bugungi kunda tibbiyot ta'lim muassasalariga yangidan-yangi innovatsion texnologiyalar kirib kelmoqda. Ahamiyatli jihati, tibbiyot ta'limini yanada rivojlantirish yo'lida taqdim etilayotgan innovatsion texnologiyalar, asosan, yoshlar tomonidan ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri simulyatsion va MedSkin sun'iy teri trenajorlaridir. Bugungi kunda biz shu kabi o'z loyihalarimiz bilan turli innovatsion tanlovlarda g'olib bo'lib, ixtirolarimizni "Imkon" nomi bilan ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqdamiz.



Muhammadayubxon
Boboyev

Tibbiyot va trenajor

Andijon davlat tibbiyot institutining 6-bosqich talabasiman. Shu sohaning ichida yurganim bois sohadagi ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimida. Negaki har doim ham nazariy bilimlarni amaliyotda o'zlashtirishning imkoni bo'lavermaydi. Deylik, tibbiyotning jarrohlik bo'limida tahsil olayotgan talaba jarrohlik amaliyotlarining sir-asrorlarini chuqur o'zlashtirishi lozim. To'g'ri, u jarrohlik amaliyotlarida qatnashadi, ustozlarining faoliyatini kuzatadi. Lekin amaliyotni mustaqil bajarishi va o'ziga nisbatan ishonch hosil bo'lishiga uzoq vaqt ketishi mumkin. Buning uchun qo'lni chiniqtirish kerak. Ana shunday paytda laparoskopik simulyatsion trenajorlar qo'l keladi.

Laparoskopik simulyatsion trenajorlari o'zi nima? Bu yangi ixtiro emas. Ushbu uskuna xorijda allaqachon mavjud. Biroq O'zbekistonda bu kabi trenajorlar ishlab chiqarilmasligi sababli trenajorlarga bo'lgan talabni faqatgina import mahsulotlari hisobigagina qondirish mumkin. Import qilinadigan chet el mahsulotlarining narxi esa qimmat. Biz ishlab chiqqan simulyatsion trenajorlar import o'rnini bosadi. Ushbu trenajorlarimiz ko'plab afzalliklari bilan raqobatchilaridan farq qiladi.

U qanday ishlaydi?

Xullas, bir quti ko'rinishidagi ixchamgina uskuna. Qutining ustida trenajor qaychisi, igna ushlaydigan va qisib turadigan asboblari



mavjud. Shuningdek, unga kamera ham o'rnatilgan. Odam a'zolari quti ichiga maxsus lego ko'rinishida joylashtirilgan. Shu qutini qorin bo'shlig'i deb tasavvur qilsak, uning ustidagi asboblari bilan go'yoki qorin bo'shlig'ida jarrohlik amaliyotini o'tkazayotgandek bo'lasiz. Ekran orqali ichkarida bo'layotgan jarayon to'liq ko'rinib turadi. Bo'lg'usi jarroh uchun bu katta tajriba bo'lishi muqarrar.

"Eng yaxshi texnologik yechim" nominatsiyasi g'olibi bo'ldim

Biz 2021-yilda hozirgi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan Andijon shahrida o'tkazilgan "TechnoWays" texnologik rivojlanish marafonining hududiy bosqichida "Imkon laparoskopik trenajorlari" loyihasi bilan faol ishtirok etib, "Eng yaxshi texnologik yechim" nominatsiyasida birinchi o'rinni egallaganmiz va 30 mln so'm miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanganmiz.

O'tgan yili ilk bora tashkil etilgan "Mirzo Ulug'bek vorislari" respublika tanlovida xuddi shu "Imkon laparoskopik trenajorlari" loyihasi bilan ishtirok etib, tanlovning Farg'ona shahri, Farg'ona viloyati hamda respublika bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritdim. Shahar bosqichida eng kam ish haqining 5 barobari, viloyat bosqichida eng kam ish haqining 10 barobari va respublika bosqichida eng kam ish haqining 20 barobari miqdorida pul mukofotlari bilan taqdirlandim.

Akbarali TURDIYEV:
**TECHNOWAYS –
 ORZUYIM
 USHALISHIGA
 YORDAM
 BERGAN**



Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanida tugʻilib oʻsgan Akbarali bolaligidan texnikaga qiziqardi. Toʻgʻri, oʻgʻil bola texnikani yaxshi koʻradi-da, deyishingiz mumkin. Ammo uning bu qiziqishi elimiz uchun foydali ixtirolarning dunyo yuzini koʻrishiga sabab boʻldi. Akbarali Turdiyev hozirda Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandisleri instituti Milliy tadqiqot universitetining 2-bosqich magistranti. U shu kunga qadar bir qancha loyihalar ishlab chiqarishga ulguragan yosh olimlarimizdan.

UNIVERSITETIM BILAN FAXRLANAMAN

Yoshligimda kelajakda el sevgan inson bo'lishim uchun yaxshi oliygohda o'qishim kerak, deb o'ylardim. Aslida esa inson tinimsiz mehnati, yaqinlarining yordami va ota-onasining duosi bilangina yutuqlarga erishar ekan. 2017-yil Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga grant asosida o'qishga qabul qilindim. O'sha paytda Toshkentda birorta ham yaqin insonlarim bo'lmagan. Ayni paytda esa 20 ga yaqin shogirdlarim, ukam-singlimdek bo'lib qolgan insonlarim, akam-opamdek bo'lib qolgan ustozlarim bor. Ular ko'magida bir qator loyihalarga asos soldim va aynan shu loyihalar orqasidan ma'lum bir miqdorda daromadga ham ega bo'ldim.

DADAMNING ISHONCHI BILAN YUTUQLARGA ERISHGANMAN

Har doim yangi ish boshlaganimda, menga eng birinchi ishonadigan inson – dadam. Ixtirochi bo'lishimda ularning o'rni juda katta. Bilasizmi, yoshligimda nimanidir buzib qo'ysam, dadam uni qayta tuzatishni o'rgatardi va hech qachon qattiq gapirib, tanbeh bermagan. Shu sababli ham qiziqishim kasbga aylana boshladi va shu sohada ko'p natijalarga erishdim. Ayni paytda Atruf-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot institutida ish faoliyatimni olib bormoqdaman. Shu yerda o'zim uchun kerakli bo'lgan bilimlar olib, ish tajribamni oshirmoqdaman.

SUVNI TEJASH UCHUN LOYIHA YARATDIM

Bugungi kunda suv bilan bog'liq muammolar O'zbekistonda ham tobora ortib bormoqda. Sababi suv iste'molchilari va suv isrofi yildan yilga ko'paymoqda. Biz, yoshlar ham bu muammolarga jiddiy qarashimiz va unga yechim topishimiz lozim. Shu maqsadda 2019-yil suvni tejash texnologiyamni ishlab chiqdim. Bu texnologiya "Smart drip irrigation system" deb nomlanadi. Loyihaning eng

muhim tomonlaridan biri – u odatdagi sug'orish uslubiga nisbatan 30% dan 50% gacha suvni tejash imkoniyatini yaratib beradi.

LOYIHA QANDAY ISHLAYDI?

U doim ekinning suvga bo'lgan talabini aniqlab turadi va o'simlikka qachon suv kerak bo'lsa, nasosni ishga tushiradi. Albatta, bu jarayonda ekinga ham me'yoriy darajada suv berish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda, fermer yoki dehqonlar uchun ham qulaylik yaratib beramiz. Negaki ekin hech qanday ishchi kuchisiz sun'iy intellekt orqali sug'oriladi. Bu jarayonda fermer va dehqonlar uyda o'tirgan holda, maxsus ilova orqali yer holatini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, mavsum davomida qancha energiya, suv va o'g'itlardan foydalanganini ilova orqali hisoblashi mumkin.

LOYIHADAN OLDIN VA KEYIN...

Ushbu texnologiya 2019-yilda shunchaki g'oya edi. Keyin dasturchilar yordamida uning birinchi prototipini yaratdim. Bu loyiha orqali ko'plab grantlar ham yutib oldim va ma'lum bir qismini loyiha rivoji, ma'lum bir qismini esa shaxsiy rivojlanishim uchun ishlatdim. Bugungi kunga kelib, "Smart drip irrigation system" loyihasini Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti bilan birgalikda 6 ta viloyatning 400 gektar yer maydoniga o'rnatish ustida ish olib boryapman. Albatta, bu loyihamiz kelajakda ham fermer-dehqonlarimizga yaqindan yordam berishiga ishonaman.

G'ALABALAR KO'P BO'LGAN

Bir necha yildan buyon universitetda tashkil qilingan ilmiy va innovatsion loyihalar ustida ish olib borib, "Hydroleaders" jamoasidagi talaba - yoshlarga "Robototexnika", "Web dasturlash" hamda StartUp loyihalarni boshqarishni o'rgatib kelmoqdaman. O'quvchilarim turli xalqaro va respublika tanlovlarida nufuzli o'rnlarni egallagan.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi muassisligidagi Respublika yosh olimlar kengashining "Respublika yosh olimlarining innovatsion loyihalari" grant tanlovida "Smart gidro" loyihasi bilan qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdim. Shuningdek, 20 mln so'm miqdorida rag'batlantirishga ega bo'ldim.



ENG KATTA
MAQSADIM –
YIRIK
KOMPANIYAGA
ASOS
SOLISH



Muhammad Islom Qosimov hali 20 yoshga kirmay, radioelektronika va robototexnika sohasida o'z kashfiyotlarini qilib ulgurgan. Katta yutuqlarga erishishga qaramay, sodda va kamtarin bu yilgitcha bilan suhbatlashar ekanmiz, uning maqsadlari ko'p, har biri insoniyat uchun foyda keltirishga qaratilganining guvohi bo'ldik.

Muhammad Islom Qosimov

"ABM Power" loyihasi

Jamoamiz bilan "ABM Power" loyihasi ustida ishlayapmiz. Uni o'z ismlarimizdan kelib chiqib, nomlaganmiz. Ya'ni Abdulaziz, Bahromjon, Muhammad Islom.

Bu loyiha uch qismga bo'linadi. Birinchisi, yuqorida aytib o'tilgan "UzBass" loyihasi. Ikkinchisi esa O'rta Osiyodagi birinchi bosma platalarni ishlab chiqaruvchi kompaniya va uchinchisi – tok quvvatini 1,5 Volt dan 220 Voltgacha ko'paytirib beradigan qurilma. Bu qurilma hozirda sinov jarayonida. Bugungi kungacha 5 ta kompaniya bilan shartnoma imzolaganmiz.

"Ultra Vision" – ko'zlaringiz dard ko'rmasin

Bilasizmi, hozirgi texnika zamonida ko'z juda ko'p toliqadi. Negaki kompyuter, gadjet-lar ko'zlarga ta'sir qilmay qolmaydi. Shunday vaziyatlarda odamlarga yordam berish uchun ko'zni davolovchi "Ultra Vision" aqlli ko'zoynaklar loyihasini ishlab chiqqanman. To'g'ri, xorijda bu ko'zoynaklarning analogi bor. Lekin men ishlab chiqqan ko'zoynaklar 4-5 barobar arzonroq. Shuning uchun



uni xorijdan buyurtma qilib, keyin kelishini kutib o'tirmay, o'zimizda, yaqin atrof dan xarid qilish imkoni bo'lishini istadim.

Qanday davolaydi, deysizmi?

Bunday ko'zoynaklar ko'z qovoqlarini qizitib, yengil harakat bilan uqalaydi. Shuningdek, antistress ta'sirga ega tovushlar bilan asabni ham tinchlantiradi. Shu orqali ko'zning turli kasalliklarida foyda qiladi. Hattoki ko'z saratonining boshlang'ich davrida ham samarasi katta.

"TechnoWays" – rivojlanish uchun pillapoya

"Technoways" texnologik rivojlanish marafonida "Eng faol ishtirokchi" nominatsiyasi g'olibi bo'lganman. 2021-yili respublika bosqichida "Ultra Vision" aqlli ko'zoynaklar, 2022-yili esa "UzBass" loyihasi bilan ishtirok etganman. "Cambridge coders hackathon 2022" da guruh a'zomizning "Fresh energy" loyihasi bilan ham ishtirok etganmiz. 2022-yilning dekabr oyida bo'lib o'tgan ixtirochilik va ratsionalizatorlik tanlovida "Smart Ambulance" (elektro tez yordam mashinalari) loyihasi bilan ishtirok etdim.

Rejalarim katta

Eng katta maqsadlarimdan biri – O'zbekistonda IT hardware sohasiga oid yirik kompaniyaga asos solish va ushbu kompaniyani jahon reytingida yuqori pog'onalarga olib chiqishdir.



MENING O'Z AVTOMOBILIM BOR ENDI!

Shaxzod Erkinov



Mashinalarga qiziqmagan bola bo'lmasa kerak...

Kichikligimdan mashinalar yasashga qiziqishim katta edi. Eng birinchi mashinamni to'rtburchak yog'och parchasi hamda plastik idishning qopqoqlari yordamida yasaganman.

Dadam ancha yil ilgari elektronika bilan shug'ullanganlar. Shu sababli omborxonamizda ular foydalangan asboblardan bo'lardi. Kerakli asbob-uskunalar yordamida keyinchalik biroz murakkab mexanizmlilik texnikalarini yasay boshladim. Erishgan natijalarim meni qoniqtirardi, ammo shu bilan cheklanib qolishni istamadim. Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarning birida shprints bilan harakatlanadigan avtokraniga ko'zim tushgan edi. O'shani yasab ko'rmoqchi bo'ldim. Dadam ham menga qarashdilar. Ishimiz muvaffaqiyatli yakunlandi. Shundan keyin sekin-astalik bilan robototexnika va elektronika sohasiga qadam qo'ya boshladim.

Qutqaruvchi robot yasadim

Ishlanmalarimni qay tarzda yasaganim ko'pchilik tengdoshlarimga qiziq bo'lgan. Shu sababli YouTube ijtimoiy tarmog'ida o'z kanalimni ochdim. Har bir ixtiro biron-bir muammoni bartaraf etish maqsadida o'ylab topiladi. Hayotimizda turli xil baxtsiz hodisalar ro'y berib turadi. Ba'zan odamlarga yordam berish uchun o'zimiz qilasan. Shu maqsadda "O'rgimchak robotim"ni yasadim.

Ushbu robot pult yordamida masofadan boshqarilib, unga o'rnatilgan kamera

foydalanuvchiga atrofdagi hodisalarni kuzatish imkonini beradi. Robot tabiiy ofatdan shikastlangan, ayniqsa, zilzila tufayli qulagan binolar ichkarisida qidiruv ishlarini olib borishda asqatadi.

Hozirda chet davlatlarda bu vazifani bajarish mashina ko'rinishidagi mini-robotlarga yuklatilmoqda. Ammo tog'-u toshlarda, shuningdek, bino qoldiqlari orasida harakatlanish g'ildirakli mashinalar uchun ancha muammoli, o'rgimchak oyoqlari esa bu vazifani bema'lol uddalay oladi.

Ushbu ishlanmalar bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi (Innovatsion rivojlanish agentligi) tomonidan 2021-yili o'tkazilgan "Raqqamli texnologiya yoshlar nigo'hida" bel-lashuvida g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Robototexnika ko'plab ixtirolarga yo'l ochadi

Robototexnika juda ham ko'p yo'nalish va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli ham bu sohada bir turdagi qurilmalar yasash bilan cheklanib qolish deyarli imkonsiz. Mening eng muvaffaqiyatli ishlanmalarim



ham bir-biridan butkul farq qiladi. Masalan, 2020-2021-yillarda Innovatsion rivojlanish vazirligi (hozirda agentlik) tomonidan o'tkazilgan "Karantinda ochilgan iste'dodlar" tanlovida o'zimizning "Robot repetitor"im bilan ishtirok etganman. Robot bilan istalgan vaqtingizda dars qilishingiz mumkin. Albatta-dal U charchoq nima, bilmaydi, vaqti esa chegaralanmagan.



O'zbekistonda ELEKTROMOBILLAR ishlab chiqarishni rivojlantiraman

Asadbek Urunov, "Dubai Expo – 2020" xalqaro ko'rgazmasi hamda Turkiya Respublikasining Samsun shahrida tashkil qilingan "Teknofest" festivalida o'z ishlanmalari bilan O'zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etgan. Shuningdek, "Technoways" texnologik rivojlanish marafonida "Safesubway" (Xavfsiz innovatsion metro tizimi) loyihasi uchun "Eng faol ishtirokchi" nominatsiyasini qo'lga kiritgan. Qahramonimizning erishgan yutuqlari hamda innovator sifatida bosib o'tgan yo'llari haqidagi ma'lumotlar Jurnalmiz o'quvchi-yoshlari uchun ham foydadan xoll bo'imas, degan maqsadda u bilan suhbat uyushtirdik.


Asadbek Urunov

MENGA IMKON BERGAN MAKON!

Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Innovatsiyalar Milliy ofisi tomonidan o'tkazib kelinadigan "Technaways" marafoni doirasida ko'plab ixtirochi va qobiliyatli yoshlar kashf etilmoqda. Shunday iqtidorli yoshlardan biri, ushbu marafon doirasida o'tkazilgan tanlovlar g'olibi, Toshkent davlat texnika universiteti talabasi Ixtiyorjon Rashidovdir. Qahramonimiz erishayotgan yutuqlar va muvaffaqiyatlar ko'pchilik yoshlarga motivatsiya beradi, degan maqsadda u bilan suhbat uyushtirdik.



Ixtiyor Rashidov



"TASS-Vision start-up" firmasi va uning innovatsion loyihalari haqida eshitganmisiz?

Uning tinib-tinchimas rahbari haqida-chi?

Mazkur so'nimizning qahramoni xalqimiz va tadbirkorlarimizga o'zining innovatsion ixtirolari bilan ko'maklashib kelayotgan innovator Shahzod Umrzoqovdir. U endigina

24 yoshni qarshilayotgan bo'lsa-da, ko'plab yutuqlarga erishgan. Xususan,

2018-yilda O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan

"Startup-tashabbuslari-2018" tanlovi

g'olibi, 2019-yilda "Biznes samaradorligi va

shaffofligini nazorat qila oladigan sun'iy

intellekt dasturi" bilan Qozog'istonda

o'tkazilgan "DARlab-2019" O'rta Osiyo

tanlovida ham birinchilikni qo'lga kiritgan.

Shahzod UMRZOQOVNING

"AQLLI KAMERALARI"

ENDI JAHON BOZORIDA

Shahzod Umrzakov

DARSLARNI "AQLI TIBBIYOT" BILAN VIRTUAL O'RGANAMIZ!



Bugun har bir sohaga "aqli" texnologiyalar shiddat bilan kirib kelmoqda. Bunday yangi va zamonaviy texnologiyalarning, ayniqsa, tibbiyot sohasiga kirib kelishi quvonarli hol, albatta. Negaki bu texnologiyalar inson salomatligini asrashdek eng mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan shifokorlarning og'irini yengil qilib, bemorlarning tez va asoratlarsiz davo topishiga ko'maklashadi. Andijon davlat tibbiyot institutida tibbiyot sohasida tahsil oladigan talabalarning fanlarni tez va oson o'zlashtirishlari uchun "Anatomiya va klinik anatomiya" fanidan virtual simulyatsion o'quv laboratoriyasi asosida "VR anatomiy" dasturining ishga tushirilishi ham ayni shu maqsadga xizmat qiladi. Ushbu loyiha Innovatsion rivojlantirish vazirligi tomonidan amaliy loyiha sifatida 700 mln so'mga moliyalashtirildi.

Islom Bektashev



Asadbek Ro'ziyev

ENG SIFATLI AQLLI TIZIMNI ISHGA TUSHIRDIM

2020-yil 25-dekabr kuni bo'lib o'tgan Yashlar forumida Muhtaram Prezidentimiz bilan uchrashish baxtiga sazovor bo'ldim. Ularning topshiriqlari asosida mamlakatimizning har bir nuqtasidan turib, ma'naviy meroslarimizni o'qish imkoniyatini beruvchi "Adiblar" nomli ilovam ham ishga tushirildi.

